



O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH - DAVR TALABI

Xasanova Nigora Nizomovna,

Pedagogik mahorat markazi metodik xizmat ko'rsatish bo'limi
musiqa madaniyati metodisti.

nigorax554@gmail.com

+99897 436-06-27

Annotations

Ushbu maqolada umumta'lim muassasalarida ta'lism sifatini oshirish, xususan, musiqa madaniyati darslarini qiziqarli va mazmunli tashkil etishda xalqaro tajribalarga asoslangan interfaol metodlarni amaliyotda qo'llashning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: XXI asr ko'nikmalari, interfaol metod, ta'lism-tarbiya, musiqa, mustaqil fikrlash, ustoz-shogird, xalqaro tajriba, energayzer.

Annotation

В статье рассматривается важность применения интерактивных методов на основе международного опыта в повышении качества образования в учреждениях среднего профессионального образования, в частности, в организации уроков музыкальной культуры в интересной и содержательной форме.

Ключевые слова: Навыки XXI века, интерактивный метод, образование, музыка, самостоятельное мышление, учитель-ученик, международный опыт, энерджайзер.

Abstract

The article discusses the importance of using interactive methods based on international experience in improving the quality of education in secondary vocational education institutions, in particular, in organizing musical culture lessons in an interesting and meaningful form.

Keywords: 21st century skills, interactive method, education, music, independent thinking, teacher-student, international experience, energizer.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli,

millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Shavkat Mirziyoyev.

Ta'lism-tarbiya uzviyligini ta'minlash, ma'naviyatli yoshlarning kamol topishida ustoz-shogird an'anasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, darslarni xalqaro tajribalarga asoslangan ta'lism asosida samarali interfaol metodlar va faollashtiruvchi o'yinlar orqali tashkil etish, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, mulohaza yuritishga o'rnatish, jamoa bilan ishslash, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va milliy madaniyatni faoliyatda aks ettirish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.



Ayniqsa, 5-7-sinf o'quvchilarining darsdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash, ijodkorligini rivojlantirish va fanlararo integratsiyaga asoslangan ta'lif berishda didaktik o'yinlar, enerjayzer mashqlari va interfaol metodlarni qo'llash yaxshi natija beradi.

Enerjayzer - tanaffus yoki dam olish, faollashtirish daqiqasi.



Ushbu enerjayzerni sinf o'quvchilarining diqqatini jalg qilish, faolligini oshirish va guruhg'a bo'lish jarayonida qo'llashimiz mumkin.

Masalan, "Joylar bilan almashsinlar!" enerjayzeri

- Kitob o'qishni yaxshi ko'ruchilar;
- Sovg'a berishni yaxshi ko'ruchilar;
- Mashg'uilotimizda formada o'tirganlar;
- Sayohat qilishni yaxshi ko'ruchilar;
- Chet elda o'qishni xohlovchilar;
- Ota-onasini yaxshi ko'ruchilar;
- Kino ko'rishni yaxshi ko'ruchilar.
- Bayramlarni yaxshi ko'ruchilar;
- Zamonaviy kiyinshni xohlovchilar;
- Shirinlik yejishni yaxshi ko'ruchilar;
- Ijodkorlikni xush ko'ruchilar.

Enerjayzerni o'quvchilar ishtiyoy bilan bajaradi. Shundan so'ng o'quvchilarning qiziqish va dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda 4 yoki 5 guruhg'a ajratiladi. Dars jarayonida o'z guruhi muvaffaqiyati uchun sog'lom raqobatda ishlashini ko'zda tutgan holda "Ta'lif krediti" metodi qo'llanadi.



"**Ta'lif krediti**" metodi barcha fanlar uchun mos keladigan samarali metod. Ushbu metoddan dars davomida jamoalarni baholab borish maqsadida foydalanish tavsiya etiladi. "**Ta'lif krediti**" metodini bajarishda dars boshida metod qoidalari tushuntiriladi. Har bir jamoaga darsda ishtirok etish uchun 30 kredit miqdorda qarz beriladi. Shundan so'ng dars jarayoni (faoliyatlar) boshlanadi. Jamoalar o'ziga berilgan topshiriqlarni bajarish evaziga umumiy kredit miqdoridan 5 kreditdan qarzlarini so'ndirib borishadi. Dars yakuniga qadar barcha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib, kreditlarini 100% so'ndirgan jamoa g'oliblikni qo'lga kiritadi.

Ushbu metod o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda mas'uliyat, shijoat va serg'ayratlik hissini oshirish hamda jamoada ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida foydalanish uchun tavsiya etiladi.



“Porloq yulduz” metodi - o’quvchining o’z faolligi va bilimini namoyon etishi, uy vazifasini yaxshi o’zlashtirishi, o’tilgan mavzuning eng muhim ma’lumotlarini bayon eta olishi, dars jarayonida berilgan topshiriqlarni bajarishda tezkor harakat qilishiga erishish maqsadida qo’llanadi.

Xalqaro tajribalarga asoslangan ta’lim o’quvchini qiziqтирish, jalb etish va faolligini oshirish asosida hayotga taylorashni ko’zda tutadi. Shu nuqtai nazardan 6-sinf musiqa madaniyati darsligiga kiritilgan o’qituvchi tomonidan uyg vazifa sifatida berilgan III-chorakning 9-mavzusi “Sharq xalqlari kasbiy musiqasining o’xhashligi” mavzusini so’rab baholash maqsadida **“Porloq yulduz”** metodini qo’llashimiz mumkin.

Bunda guruhlar tomonidan o’tilgan mavzudagi eng muhim, masalan, ushbu 5 ta ma’lumot keltiriladi:

1-guruh: Musiqiy asarning nomi, tovush qatori, shakli va matni bo’ladi.

2-guruh: Kasbiy musiqaning eng yirik shakli - maqom san’ati Ozarbayjonda “mug’om”, o’zbek - tojik xalqlarida “maqom”, hindlarda “raga”, arablarda “nuba” deb nomlanadi.

3-guruh: Sharq xalqlari an’analari bir-biriga o’xhash bo’lgani uchun musiqa sozlari shu hududda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, e’tiqodi, mashg’ulotlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan.

4-guruh: Maqom san’atida ayniqsa, tanbur sozidan keng foydalaniłgan. Tanburni hindlar “tampura”, arablar “tanbara”, uyg’urlar “tombur” deb yuritishadi.

5-guruh: Sharq xalqlarida urma cholg’ular daf, daff, dap, def degan nomda uchragani kabi, damli sozlar: nay-nyey, ney, noy; surnay-zurna, surna, pomi deb nomlanadi.

Javoblar asosida guruhlarga ta’lim krediti, ya’ni rag’batlantiruvchi ball beriladi.

Darsning asosiy bosqichi, ya’ni, yangi mavzu “Yapon teatri” mavzusini tushuntirishda esa 80/20 ya’ni, 80 foiz o’quvchi, 20 foiz o’qituvchi faolligiga erishish maqsadida **“Zanjir”** metodini qo’llashimiz mumkin.

Zanjir metodi - o’quvchining mustaqil fikrlash, xotirani mustahkamlash, fikrni erkin bayon etish, ma’lumotni to’g’ri va aniq berish kabi ko’nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, metodni qo’llash orqali o’quvchilarida yangi bilimlarga ega bo’lish, jamoa bo’lib ishlash ko’nikmalari rivojlanishiga erishiladi. O’qituvchi tomonidan mavzu ma’lumotlari tarqatma kartochka orqali tarqatiladi. O’quvchilar olgan materiali bilan tanishgach, ma’lumotni ketma-ketlikda taqdim etadi. Zanjir xalqlari uzilmasligi uchun 1-guruh bergen ma’lumotni 2-guruh takrorlagan holda o’z ma’lumotini qo’shimcha taqdim etadi. Jarayon ma’lumotlar to’liq taqdim etilguniga qadar davom etadi.



Men yangi mavzuga doir 18 ta ma’lumotni “Zanjir” metodi uchun tarqatma ko’rinishida 2 ta guruhga mo’ljallagan holda quyidagicha tayyorladim:

1-guruh uchun:

1.Yaponiyada Noo, Bugaku va Kabuki teatrлари faoliyat olib borgan.

2.Yapon xalq teatrining eng qadimiy shakli Noo deb atalgan bo’lib, IV asrda yapon an’anaviy teatrining ilk ko’rinishini tashkil etgan.

3.Noo teatr sahnasida zarhal fonda sahma daraxti chizilgan katta ipak mato bilan birga bir necha savatchalarda yashil gullar qo’yilgan. Noo teatrida bu usul bir yarim asr mobaynida o’zgarmas bo’lib kelgan.

4.Syujet asosan ertak va rivoyatlarga, shu bilan birga, Budda tarixiga asoslanadi.



- 5.Teatrning barcha spektakllari pantomima (ovozsiz) usulida ijro etilgan.
- 6.Aktyorlar rolni yorqin kiyim kiyib ijro etadi, ba'zi hollarda qo'rqinchli niqob kiyishadi.
- 7.Noo teatrida rolni erkaklar ijro etishadi, ayollar rolini bolalar o'yashadi.
- 8.Bugaku teatri XII asrda paydo bo'lgan.
- 9.Teatr sahnasida Buddha dini marosimlari tasvirlangan.

2-guruh uchun:

1. Bugaku teatrida voqealar raqqosalarning niqobdagi harakati bilan ifodalangan.
2. Aktyorlar bilan musiqachilar ham ishtirok etishgan.
3. Nay, litavra, tarelka kabi musiqiy chog'ular "sehr-jodu" xususiyatlari qarab tanlangan.
4. Aktyorlar buddalar hayotidan hikoya qiluvchi voqealarni ijro etishgan.
5. Kabuki teatri Yaponiyada XII asr oxirida shakllangan.
6. Kabuki teatrida ham rolni erkaklar ijro etishgan.
7. Kabuki teatrida ko'rinishlar raqlardan va ularni almashtirib turadigan sahnalardan iborat.
8. Yapon xalq teatri o'zining soddaligi, oddiyligi va milliy xususiyatlarga sodiqligi bilan ajralib turadi.
9. Kabuki teatri aktyorlari uchun harakatlar va ularning ovoz imkoniyatlari katta ahamiyat kasb etgan.

Demak, guruhlardan saralangan a'zolar ushbu jarayonda ishtirok etadi va yakuniy natijalar asosida guruh a'zolarining ma'lumotlari xulosalanib, ta'lim krediti beriladi.

"Notani kuylaymiz" o'yini

Bilamizki, darslikda o'quvchining nota o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Ushbu topshiriqlarni bajarishda "Notani kuylaymiz" o'yini orqali bolaning musiqiy savodxonlik, musiqani his qilish, ravon kuylash, to'g'ri talaffuz va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin. Ushbu o'yin davomida jamoalar bir-birini diqqat bilan eshitish orqali 1-jumlan 1-guruh; 2-jumlan 2-guruh; 1-jumlan 3-guruh; 2-jumlan 4-guruh shaklida kuylashadi; 5-guruh esa dirijyorlik qiladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarning notalarni o'qiy olishi, sofedjio qilishi, dirijyorlik harakatlari orqali boshqaruv qobiliyatini rivojlantirishga erishiladi.



Quyidagi kuyni dirijorlik qilib, notaga qarab kuylang:



Bu o'yinni tashkil etishda o'qituvchi vazifani guruhlarga to'g'ri taqsimlashi lozim. Shuningdek, guruhlarni baholash orqali ta'lim krediti beriladi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning bir soatlik darsdan olgan taassurotlarini "Svetofor" metodi orqali o'rganadi.



“SVETOFOR” METODI



Svetofor metodi - o’quvchining bilimi, mustaqil fikrlashi va shaxsiy xulosalarini o’rganish, o’quvchilarning fikr-mulohazalari asosida darsda aniqlangan kamchiliklar hamda o’quvchilarda mayjud bo’shliqlarni kelgusi darslarda kuzatilmasligini ta’minlash maqsadida o’qituvchi o’zi uchun rejalashtirishini ko’zda tutgan holda darsning yakuniy qismida qo’llanadi.

Ushbu metoddagi ranglarga tavsif bersak:

1. **Qizil rang**-taklif bildirish belgisi;
2. **Sariq rang**-muhim ma’lumot, ya’ni, o’quvchining yodida qolgan, bilimini oshirishga xizmat qilgan ma’lumotni aks ettirish;
3. **Yashil rang**-mendagi o’zgarish, ya’ni, dars jarayonida o’quvchi o’rgangan va amaliyotda qo’llashni maqsad qilgan ma’lumotini aniqlash, kuzatilgan bo’shliqnini monitoring qilishni anglatadi. Shuningdek, o’quvchilarga fikr-mulohazalarini erkin bildirish imkoniyatini beradi.

Vatanimizning yorug’ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim-tarbiyaning to’g’ri yo’lga qo’yilgani yosh avlodga berilayotgan tarbiya bilan chambarchas bog’liq. Tarbiyachi, o’qituvchi yoki metodist sifatida ta’lim sohasida faoliyat olib borar ekanmiz, albatta, zamon bilan hamnafas ish olib borish lozim. Zero, XXI asr yoshlarini ta’lim-tarbiyaga jalb etishning yagona yo’li yangilikka ochiq bo’lish va doimiy o’z ustida ishlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Begmatov. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. – T.: “G’. G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2017. – 88 bet.
2. N. Xasanova. Musiqa madaniyati darslarida o’quvchilar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish (o’quv-metodik qo’llanma). – T.: Bookmany print, 2024. – 104 b.